2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 171 (1232), 2024-yil 25-avgust, yakshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

# “BUYUK AJDODLAR MEROSI – UCHINCHI RENESSANS ASOSI” MAVZUSIDAGI VIII XALQARO KONGRESS ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Qadrli do‘stlar!

Avvalo, O‘zbekistonning qadimiy tarixi va boy madaniy merosini o‘rganish va targ‘ib etishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan siz, azizlarni “Buyuk ajdodlar merosi — Uchinchi Renessans asosi” mavzusidagi VIII xalqaro kongressning ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Dunyoning uzoq va yaqin davlatlaridan tashrif buyurgan sizlar kabi ko‘zga ko‘ringan ilm-fan va san’at arboblari, olim va tadqiqotchilar, ekspert va restavratorlar, muzeyshunos va boshqa o‘nlab soha mutaxassislarining ulug‘ allomalar diyori bo‘lgan, birinchi va ikkinchi Sharq renessansini yaratishda ulkan o‘rin tutgan yurtimizdagi ilmiy-madaniy meros namunalarini o‘rganishga katta qiziqish va e’tibor bilan qarayotgani bizni albatta mamnun etadi.

Bu borada O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha butunjahon jamiyati tomonidan o‘tkazilayotgan xalqaro anjumanlar muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Kongressning bu galgi sakkizinchi yig‘ilishi doirasida mamlakatimizda bunyod etilayotgan, madaniy-gumanitar yo‘nalishdagi megaloyiha — O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatining joriy va kelajakka mo‘ljallangan ilmiy dastur va rejalari muhokama qilinishi ayniqsa diqqatga sazovordir.

Bunda buyuk alloma va mutafakkirlarimizning dunyo, xususan, musulmon ilm-fani va sivilizatsiyasi ravnaqiga qo‘shgan munosib hissasi, muqaddas islom dinining insonparvarlik mohiyati bo‘yicha fundamental tadqiqotlar o‘tkazishga oid dasturlar, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, hech shubhasiz, o‘zaro hamkorligimiz uchun yangi imkoniyat va istiqbollar ochib beradi.

Bu haqda so‘z yuritganda, sizlarning ishtirokingizda tayyorlangan **“O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida”** loyihasi doirasida 70 jildlik kitob-albomlar nashr qilinib, yurtimiz va chet ellardagi eng mashhur kutubxonalar, oliygoh va muzeylar, nufuzli ilm-ma’rifat maskanlariga yetkazib berilganini ta’kidlash lozim. Ana shu ishlarning davomi sifatida anjuman kunlarida mazkur turkumdagi yana 10 ta yangi jild taqdimoti o‘tkazilishi ham muhim madaniy hodisadir.

Fursatdan foydalanib, xalqimizning qadimiy va betakror madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan siz, azizlarga, olim va tadqiqotchilar, noshir va jurnalistlar jamoasiga, shuningdek, jahondagi turli fond va kolleksiyalarda xalqimizning tarixiy va madaniy yodgorliklarini asrab-avaylab, bizning mutaxassislarimiz bilan yaqin hamkorlik qilib kelayotgan olijanob insonlarga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Biz sizlarning barchangizni O‘zbekistonning chinakam do‘stlari deb bilamiz va ilmiy-ijodiy faoliyatingizni yuksak baholaymiz. Yurtimizdagi yetakchi ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari, birinchi navbatda, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi eshiklari sizlar uchun doimo ochiq.

Mohiyat e’tibori bilan o‘zida Vatanimizning shonli o‘tmishi, bugungi hayoti va buyuk kelajagini namoyon etishga xizmat qiladigan bu noyob zamonaviy maskanda turli ilmiy muhokamalar, bahs-munozaralar o‘tkazish, dolzarb g‘oya va kashfiyotlarni ilgari surish, yangi ilmiy kontentlar ishlab chiqish uchun barcha sharoitlar yaratib beriladi.

Ishonchim komil, Xalqaro kongress doirasida mamlakatimizdagi madaniy yodgorliklar, tarixiy-me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar va kitob fondlarini o‘rganish hamda ularni asrash va targ‘ib etish borasidagi ishlar bilan yaqindan tanishib, hamkorligimizni rivojlantirish bo‘yicha yangi taklif va tavsiyalarni bildirasizlar. Anjuman jarayonida o‘tkaziladigan barcha tadbirlar, hurmatli olimlarimizning ilmiy ma’ruzalari, muhim g‘oya va tashabbuslari Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shiladi, deb o‘ylayman.

Sizlarni bugungi nufuzli anjumanning ochilishi bilan yana bir bor qutlar ekanman, barchangizga sihat-salomatlik, ilmiy va ijodiy faoliyatingizga yutuq va omadlar tilayman.

Jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lgan O‘zbekistonga — tinchlik, do‘stlik va ilm-ma’rifat diyoriga xush kelibsiz!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi**
**Prezidenti**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ UCH YILLIGI MUNOSABATI BILAN FAN, TA’LIM, SOG‘LIQNI SAQLASH, ADABIYOT, MADANIYAT, SAN’AT SOHALARI VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oshirish, o‘zining yorqin iste’dodi, ko‘p qirrali ijodiy, ilmiy-amaliy faoliyati bilan xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, mamlakatimizda ilm-fan, ta’lim, adabiyot, madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish, yoshlarimizni ona yurtga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilarga faxriy unvonlar berilsin:

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti” faxriy unvoni bilan**

**Qo‘ziyev Toir Asqarovich** — V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining an’anaviy ijrochilik bo‘limi o‘qituvchisi, sozanda

**Nadirova Aygul Bazarbayevna** — Nukus davlat pedagogika institutining musiqiy ta’lim kafedrasi dotsenti, xonanda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Nazarxanova Sevara Anvarjanovna** — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi

**Umarov Valixan Mirvasilevich** — O‘zbekiston davlat akademik rus drama teatri bosh rejissyori

**Urinbayev Kamoliddin Turdimuratovich** — O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori, O‘zbekiston davlat simfonik orkestri badiiy rahbari

**Amonqulova Nigina Haydarovna** — Tojikiston Respublikasi Hukumati huzuridagi Televideniye va radio qo‘mitasining “Daryo” ansambli xonandasi

*Davomi 2-betda*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ UCH YILLIGI MUNOSABATI BILAN DAVLAT XIZMATCHILARI HAMDA ISHLAB CHIQARISH VA IJTIMOIY-IQTISODIY SOHALAR XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, barcha soha va tarmoqlarda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish borasidagi ko‘p yillik samarali mehnati, yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta’minlash, Yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori va nufuzini yuksaltirishga qo‘shgan munosib hissasi, ilg‘or innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, hududlar infratuzilmasini jadal rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari, jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ma’naviy yangilanishga erishish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo‘lidagi ibratli faoliyati hamda jamoat ishlaridagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan chorvador” faxriy unvoni bilan**

**Ismoilov Faxriddin Tursunovich** — Oltinko‘l tumanidagi “Baxt imkon rivoj chorvasi” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Andijon viloyati

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan pillachi” faxriy unvoni bilan**

**Hamidov Musurmon** — Nurota tumanidagi “Nurota agropilla” mas’uliyati cheklangan jamiyati pillachisi, Navoiy viloyati

**Choriyeva Jumaxol Qurbonovna** — Bandixon tumanidagi “Bandixon agropilla” mas’uliyati cheklangan jamiyati pillachisi, Surxondaryo viloyati

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan paxtakor” faxriy unvoni bilan**

**Kodirov Baxtiyor Abdusalomovich** — Mingbuloq tumanidagi “Baxtiyor Abdusalomovich” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Namangan viloyati

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” faxriy unvoni bilan**

**Alixanov Boriy Batirovich** — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi

**Mirzayeva Oyistaxon Mamajonovna** — Izboskan tumanidagi “Gulzor pari” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Andijon viloyati

**Noviskiy Zinoviy Bogdanovich** — O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan irrigator” faxriy unvoni bilan**

**Kurbanov Ilxam Uzakovich** — Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi boshlig‘i, Qashqadaryo viloyati

**Ostanov Razzoq Mapizayevich** — “Amu-Buxopo” mashina kanalidan foydalanish boshqapmasi boshlig‘i, Buxoro viloyati

*Davomi 2-, 3-betda*

Xalqaro anjuman

# BUYUK AJDODLARIMIZ MA’NAVIY MEROSINI O‘RGANISH VA TADQIQ ETISH

## jamiyat taraqqiyoti uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi




**O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati (WOSCU) tomonidan tashkil etilgan “Buyuk ajdodlar merosi — Uchinchi Renessans asosi” mavzusidagi VIII xalqaro kongress 23-avgust kuni Toshkentda boshlanib, shu kunlarda o‘z ishini Samarqandda davom ettirmoqda.**

*Davomi 4-betda*

Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!



# U KUNLAR ERTAK BO‘LIB QOLSIN

## YOXUD SUVEREN, DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOIY VA DUNYOVIY DAVLAT BARPO ETISH OSON KECHMAGAN

**Davlatimiz rahbarining 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida “Bundan o‘ttiz uch yil oldin o‘ta og‘ir va murakkab tarixiy vaziyatda qo‘lga kiritilgan milliy istiqlolimiz bugungi kunda ko‘p millatli butun xalqimizni Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsad yo‘lida birlashtirib, yangi yutuq va marralar sari ilhomlantirmoqda.**

Aynan mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to‘laqonli subyektiga aylandi. Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi. Yer yuzidagi turli davlatlar va xalqlar bilan do‘stlik hamda hamkorlik aloqalarimiz tobora kengayib, yurtimizning xalqaro maydondagi mavqei va nufuzi ortib bormoqda”, deyiladi.

O‘zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishishi tasodif emas, balki tarixiy zarurat edi. Xalqimiz istiqlolni qo‘lga kiritish uchun asrlar davomida kurashib kelgan. To‘maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Madali eshon, Namoz Pirimqul o‘g‘li kabi xalq qahramonlari bosqinchilarga qarshi kurashlarda jasorat va mardlik timsoli bo‘lgan.

Massagetlar malikasi To‘maris miloddan avvalgi 530-yilda Eron shohi Kir II qo‘shiniga qarshi kurashga boshchilik qilib, g‘alaba qozongan. Oddiy cho‘pon Shiroq miloddan avvalgi 519-518-yillarda ahamoniylar shohi Doro I qo‘shinini Qizilqum cho‘lida adashtirib, halokatga yo‘liqtirgan va istiqlol yo‘lida o‘zini qurbon qilgan. Miloddan avvalgi 329-323-yillarda ko‘pgina hududlarni bosib olgan yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiyga qarshi kurashda Spitamen ko‘rsatgan jasorat tarixda qoldi. XIII asr boshlarida Chingizxon qo‘shiniga qarshi Temur Malik, Najmiddin Kubro va Jaloliddin Manguberdi ayovsiz kurashdi.

Buyuk sarkarda, Sohibqiron Amir Temur mo‘g‘ul bosqinchilari zulmidan ezilgan xalqni ozod qilish va yagona markazlashgan davlat tuzishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Sohibqironning barcha yurishi g‘alaba bilan tugadi. Natijada Movarounnahr markazlashgan davlatga aylandi.

XVI-XVIII asrlarda yurtimiz zamini bitta amirlik va ikkita xonlikka bo‘lindi. Ularning o‘zaro urushi davlatchilik asoslarini yemirdi. Bunday vaziyatdan foydalangan chor Rossiyasi XIX asrning ikkinchi yarmi o‘rtalarida Turkistonni egallab oldi. Xalq endi chorizm istibdodiga qarshi kurashdi. 1892-yilda Toshkentda, 1898-yilda Andijonda, XX asr boshlarida Samarqand viloyati va 1916-yilda Turkiston hududida istibdodga qarshi ko‘plab qo‘zg‘olonlar bo‘ldi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati paydo bo‘ldi. Uning asosiy maqsadi — ma’rifatga erishish orqali xalqimizni mustaqillik uchun kurashga undash edi.

O‘zbekistonning boy, ko‘p jihatdan o‘ziga xos tarixini o‘rganish, ayniqsa, istiqlol arafasida mamlakatimizda hukm surgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, xalqimiz boshdan kechirgan g‘oyat tahlikali voqealar, o‘sha davr siyosiy manzarasini to‘liq aks ettiradigan chuqur tahlillar, yaqin va uzoq istiqbolni ko‘zlab ilgari surilgan muhim strategik qarashlar, konseptual yondashuv va xulosalarni bugun atroflicha bayon etish ham tarixiy zarurat.

Dunyo tan olgan taniqli yozuvchi Chingiz Aytmatov og‘ir dard bilan bunday yozgan edi: “Odamning yerini tortib olish mumkin, boyligini tortib olish mumkin, hatto hayotini ham olish mumkin, lekin insonning xotirasiga tajovuz qilishga kimning haddi sig‘adi?!”.

*Davomi 5-betda*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ UCH YILLIGI MUNOSABATI BILAN FAN, TA’LIM, SOG‘LIQNI SAQLASH, ADABIYOT, MADANIYAT, SAN’AT SOHALARI VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi” faxriy unvoni bilan**

**Matchanov Ochilbek Yo‘ldashboyevich** — Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi, maqom xonandasi, Xorazm viloyati

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi” faxriy unvoni bilan**

**Ziyaxanov Xurshid Djavidovich** — Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining miniatyura va kitob grafikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, grafik rassom

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvoni bilan**

**Xolboyev Xamza Davlayevich** — Uzun tumani “Yangi yulduz” madaniyat markazi qoshidagi “Rayhon” ashula va raqs xalq ansambli baxshisi, Surxondaryo viloyati

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni bilan**

**Djalalov Xodjikurban** — Respublika “Usto” uyushmasining “Golden Ganch Mansurjon” korxonasi ganchkor ustasi, Samarqand viloyati

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni bilan**

**Artikova Dilnoza Ilxombayevna** — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining Xorazm viloyati bo‘linmasi raqqosasi
**Kabduraxmanov Alibek Asatullayevich** — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining milliy simfonik orkestri bosh dirijyori
**Saidzoda Ozoda Parpiyevna** — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan**

**Lutpullayev Xayrulla** — O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining milliy qo‘shiqchilik kafedrasi professori
**Mavloniy Mashxura Igamovna** — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Mikrobiologiya instituti sanoat mikrobiologiyasi laboratoriyasi mudiri, akademik
**Mirzamaxmudov Ismaildjan** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir, Farg‘ona viloyati
**Sultanov Begdulla Jumashevich** — faxriy pedagog, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi” faxriy unvoni bilan**

**Ikramov Adxam Ilxamovich** — O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri

Xalqimizning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, adabiyot, madaniyat va san’at sohalari hamda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida erishayotgan yuksak natijalari, yurtimiz taraqqiyotini ta’minlash, jamiyatda tinchlik va totuvlik, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, yosh avlodni ezgu g‘oyalar ruhida sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashga qo‘shgan katta hissasi, shuningdek, jamoat ishlaridagi faolligi uchun quyidagilar mukofotlansin:

**“Imom Buxoriy” ordeni bilan**

**Naimov Alisher Abdurashidovich** — Farg‘ona viloyati bosh imom-xatibining o‘rinbosari, Quvasoy shahar bosh imom-xatibi
**Usmanov Raxmatillo Axmatovich** — Qashqadaryo viloyati bosh imom-xatibi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi Qashqadaryo viloyati vakili
**Elov Jobir Rustamovich** — Buxoro viloyati bosh imom-xatibi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi Buxoro viloyati vakili

**“Mehnat shuhrati” ordeni bilan**

**Abdualimov Aloxon** — Davlatobod tumanidagi 81-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati
**Kamilov Azizjon Yakubjanovich** — O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi raisining o‘rinbosari
**Saparova Raixan Xalmuratovna** — Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri faxriy artisti, xonanda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi
**Tuxliyev Bokijon** — Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi professori

**“Do‘stlik” ordeni bilan**

**Abduvaxabov Mirzabaxrom** — O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi, kulol, Andijon viloyati
**Aripov Taxir Fatixovich** — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Bioorganik kimyo instituti laboratoriya mudiri, akademik
**Arslanov Negmat** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, yozuvchi, Toshkent viloyati
**Ashirbayev Samixan** — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi mudiri
**Bayzakov Baxtiyor Bayzakovich** — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Fizika-texnika instituti laboratoriya mudiri
**Boltayev Baxodir** — Buxoro viloyati musiqali drama teatri aktyori
**Bomuradov Bobir Hodiyevich** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir
**Gulamova Marg‘uba Maxamadrasulovna** — Yashnobod tumanidagi 77-ixtisoslashtirilgan ko‘zi ojizlar maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri
**Davronov Sherzod Ravshanovich** — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” davlat muassasasi “Farhod” madaniyat saroyi direktorining o‘rinbosari, xonanda, Navoiy viloyati
**Yenin Valeriy Ivanovich** — O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi, rangtasvirchi rassom
**Imomov Xabibulla Mannapovich** — Respublika “Hunarmand” uyushmasi a’zosi, milliy musiqa cholg‘ulari ustasi, Toshkent shahri
**Karimova Zarifa Gulyamovna** — O‘zbekiston davlat konservatoriyasining musiqiy pedagogika kafedrasi dotsenti
**Kurbonov Saparboy Baratovich** — Respublika “Hunarmand” uyushmasi a’zosi, egarchi, Jizzax viloyati
**Mambetsheripova Nazira Abdiganiyevna** — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston 24” telekanali fan, ta’lim va madaniyat bo‘limi mudiri
**Matrizayev Kurambay** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, yozuvchi, Xorazm viloyati
**Nazaryan Arsen Ashotovich** — Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati institutining estrada cholg‘u ijrochiligi kafedrasi katta o‘qituvchisi
**Orziyev Odil Xudjamovich** — Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli sozandasi
**Raximov Toxir Normatovich** — Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri solist-vokalisti
**Rejametov Zuxritdin Tuganbayevich** — O‘zbekiston davlat satira teatri aktyori
**Saydaminova Dilaram Axmatovna** — O‘zbekiston davlat konservatoriyasining kompozitorlik va cholg‘ulashtirish kafedrasi faxriy professori, kompozitor
**Saliyev Xabibulo Ismailovich** — O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi, xattot
**Satbayev Orazbay Jumabayevich** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir, Qoraqalpog‘iston Respublikasi
**Tillaboyev Shohid Gapparjonovich** — O‘zbekiston boks federatsiyasi bosh kotibi
**Tovstenko Liliya Anatolyevna** — Buxoro shahridagi 21-umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati
**Tojiyev Rasuljon Jumabayevich** — Farg‘ona politexnika institutining texnologik mashina va jihozlar kafedrasi mudiri
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich** — O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Shaxobiddinov Ayub Shopatxiddinovich** — “Milliy telekanal” mas’uliyati cheklangan jamiyatining kino va seriallar direksiyasi bo‘lim boshlig‘i, kinorejissyor
**Shodmonov Nafas Namozovich** — Qarshi davlat universitetining o‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi mudiri, Qashqadaryo viloyati

**II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan**

**Abuzalova Mehriniso Kadirovna** — Buxoro davlat universitetining o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori
**Alibekova Alina Yaxyayevna** — V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining estrada ijrochiligi bo‘limi o‘qituvchisi
**Vafayeva Xadicha** — faxriy pedagog, Samarqand viloyati
**Kuziyeva Zulfiya Tashtanovna** — Sayxunobod tumanidagi 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati
**Maxkamova Donaxon Toshtemirovna** — Furqat tumanidagi 2-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Farg‘ona viloyati
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna** — “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi, Toshkent davlat yuridik universiteti professori
**Tashmatov Urazali Gafurovich** — O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi kafedrasi professori
**Tojiyev Yuldosh** — Bog‘ot tumanidagi 14-bolalar musiqa va san’at maktabining qo‘shnay cholg‘u sinfi o‘qituvchisi, Xorazm viloyati
**Turdibayeva Ra’noxon Azimjanovna** — Mo‘ynoq tumani tibbiyot birlashmasi boshlig‘ining onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**II darajali “Salomatlik” ordeni bilan**

**Begaliyev Ural Ergashevich** — Jizzax shahridagi “Doktor Akmal” xususiy tibbiyot klinikasi urolog–andrologi, Jizzax viloyati
**Djalilov Ulugbek Amanbekovich** — Tibbiyot bosh boshqarmasining 1-markaziy konsultativ-diagnostik poliklinikasi anesteziolog-reanimatologi
**Kadirov Shavkat Umidovich** — Akademik N.N.Burdenko nomidagi Milliy tibbiyot tadqiqotlari markazi bolalar bo‘limi neyrojarrohi, Rossiya Federatsiyasi
**Kadirxodjayeva Nodiraxon** — Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining qabul bo‘limi mudiri
**Sadiyev Zokir Raxmatovich** — Samarqand viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining gematologiya bo‘limi mudiri

**“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan**

**Axmedov Baxodir Madjitovich** — O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari
**Kurbanov Jamshid Abduburxanovich** — Toshkent shahridagi Eshitish va nutqni tiklash hamda ovoz reabilitatsiyasi markazi direktori
**Sharifxodjayev Usman Ulfatovich** — O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari

**“Sog‘lom turmush” medali bilan**

**Kulikov Andrey Aleksandrovich** — Toshkent shahridagi “ProRun” sport markazi direktori
**Najmidinova Gulbaxor Raximjonovna** — Jalaquduq tumanidagi “Paxtakor” oilaviy shifokorlik punkti hamshirasi, Andijon viloyati
**Oxunova Guzal Utkurovna** — Tibbiyot bosh boshqarmasining 1-markaziy konsultativ-diagnostik poliklinikasi hamshirasi
**Turayeva Ulugay Toshtimurovna** — Respublika tez tibbiy yordam markazining Qorovulbozor tumani tez tibbiy yordam stansiyasi feldsheri, Buxoro viloyati

**“Shuhrat” medali bilan**

**Abdullayev Akbar Xalilovich** — Samarqand viloyati qo‘g‘irchoq teatri aktyori
**Astanakulova Ra’no Xursanovna** — Surxondaryo viloyati Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi nevrologiya bo‘limi mudiri
**Atajanov Sobirjon Abidjanovich** — O‘zbek Milliy akademik drama teatri aktyori
**Axmedov Ashirali Abduxoliqovich** — Toshloq tumanidagi “Xolmatobod” oilaviy shifokorlik punkti oilaviy shifokori, Farg‘ona viloyati
**Axmedov Mansur Shayunusovich** — M.Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli sozandasi
**Babamuradov Baxtiyor Achilovich** — Buxoro shahridagi madaniy meros obyektlarini ta’mirlash-tiklash bo‘yicha restavrator-usta, Buxoro viloyati
**Bozorov Xurshed Abdulloyevich** — Samarqand davlat universitetining Biokimyo instituti organik sintez va bioorganik kimyo kafedrasi professori, Samarqand viloyati
**Boyqo‘ziyev Abdunabi** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir
**Ganiyev Aliyorbek Avazovich** — Toshkent shahridagi “Ixlos doktor MT” klinikasi kardiologiya bo‘limi mudiri
**Ganiyeva Zuxra Abduvaxabovna** — “O‘zbekfilm” kinokonserni” davlat unitar korxonasining liboslar bo‘yicha rassomi
**Jumanova Moxichexra Zokirovna** — Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli xonandasi
**Jurakovskiy Vladislav Emilyevich** — Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrining sahnani yoritish sexi boshlig‘i
**Zakirov Timur Vladimirovich** — Tibbiyot bosh boshqarmasining -1markaziy klinik shifoxonasi anesteziolog–reanimatologi
**Isxakov Akzamjan Giyazovich** — O‘zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi a’zosi
**Ishniyazova Xurshida Xudaybergenovna** — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasining Xorazm viloyati bo‘limi xonandasi
**Kambarov A’zam Maxamadali o‘g‘li** — O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining Axborot-tahlil va targ‘ibot ishlarini tashkil etish boshqarmasi mutaxassisi
**Karimov Axtamkul Sattorovich** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir
**Karimov Xakimdjan** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, adabiyotshunos
**Kasimova Uguloy Xamidovna** — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining dutorchilar ansambli sozandasi
**Kurbanov Raxmadjon Abidjonovich** — O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri aktyori
**Mamasharipov Xusanboy Abdunabi o‘g‘li** — “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasi aktyori
**Mannopov Azizbek Abduvali o‘g‘li** — Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi raisining o‘rinbosari
**Marupov Ilhom Islomovich** — O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining Axborot xizmati rahbari — matbuot kotibi
**Melikuziyev Djaxangir Valijanovich** — O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining Axborot-tahlil va targ‘ibot ishlarini tashkil etish boshqarmasi bosh mutaxassisi
**Mirminov Rustamjon Abdumutal o‘g‘li** — Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli xonandasi
**Najimov Elmurod Iqboljon o‘g‘li** — UNESCO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi bosh kotibining o‘rinbosari
**Niyozov Turab Mamadiyorovich** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir
**Normatov Pulat Gaybullayevich** — O‘zbekiston davlat drama teatri aktyori
**Norov Ilxomjon Ashurovich** — Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutining doston ijrochiligi kafedrasi o‘qituvchisi, baxshi
**Ochilova Feruza Murtazoyevna** — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining “Navro‘z” ashula va raqs ansambli xonandasi
**Rajabova Ibodat Abdullayevna** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira, Buxoro viloyati
**Rahimov Komiljon Rahmatovich** — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi
**Sayomov Bobirmirzo Abdumajit o‘g‘li** — Madaniy meros agentligining muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
**Tadjiyev To‘lqin Berdiyarovich** — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi
**Taxirov Rauf Raxmonovich** — Respublika “Hunarmand” uyushmasi a’zosi, koshinkor usta, Samarqand viloyati
**Toshev Azamat Bobokulovich** — O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari
**Tuychiyev Nadirjon Kazimjanovich** — “Andijon” futbol klubining muxlislar klubi raisi, Andijon viloyati
**Turdiyev Vaxid Yakubovich** — Andijon viloyati yoshlar teatri aktyori
**Tuxtayev Oybek Kamolovich** — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi
**Udovenko Olga Yuryevna** — O‘zbekiston davlat san’at muzeyining O‘zbekiston xalq amaliy san’ati bo‘limi mudiri
**Usmonov Shamsiddin Yulchiboyevich** — O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali teatr san’ati kafedrasi professori, rejissyor, Farg‘ona viloyati
**Fayzullayev Vafokul Barnoyevich** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir
**Xamdamova Moxiraxon Yusubbekovna** — O‘zbekiston davlat filarmoniyasi “Navbahor” ashula va raqs ansambli balet bo‘yicha murabbiysi
**Xamidova Xilola Djurayevna** — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi
**Xidirov Mirzoxid G‘ayratovich** — O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi Olmazor tumani bo‘yicha bosh mutaxassisi
**Xodjayev Asadjan Azatbekovich** — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori
**Xujaniyazova Zilola Turayevna** — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira
**Xuraliyev Jumavay Jurayevich** — Asaka tumani madaniyat markazi ommaviy tadbirlar rejissyori, askiyachi, Andijon viloyati
**Xusainov Fayrat Tursunovich** — Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri drama artisti
**Yuldashev Muslum Islamovich** — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining xalqaro va audiovizual jurnalistika kafedrasi dotsenti
**Yulchiyev Ilxom Israilovich** — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi
**Yakubova Dil obar Abralbekovna** — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston 24” telekanali “Axborot” bosh muharririyati sharhlovchisi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 23-avgust

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ UCH YILLIGI MUNOSABATI BILAN DAVLAT XIZMATCHILARI HAMDA ISHLAB CHIQARISH VA IJTIMOIY-IQTISODIY SOHALAR XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni bilan**

**Abdirashidov Axrar Narmatovich** — “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining sanoat temir yo‘l transporti boshqarmasi uchastka ustasi, Toshkent viloyati
**Mustafoyev Ulug‘bek Mavlonovich** — “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi
**Xudayberdiyev Abror Jabborovich** — “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh texnologi, Buxoro viloyati

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan geolog” faxriy unvoni bilan**

**Rudnev Sergey Vyacheslavovich** — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bosh geologi, Navoiy viloyati

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan quruvchi” faxriy unvoni bilan**

**Raxmonov Baxtiyor Sultonovich** — Toshkent shahar hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan transport xodimi” faxriy unvoni bilan**

**Azimov Raxmatjon Maxmudjonovich** — “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining “O‘zbekiston” lokomotiv deposi “Afrosiyob” yuqori tezyurar elektropoyezdi mashinisti, Toshkent viloyati

**“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi” faxriy unvoni bilan**

**Nutfullayev Amrillo Xayrullayevich** — “Uzbekistan airways” aksiyadorlik jamiyati Parvozlar xizmati departamenti “A-320” havo kemasi komandirining o‘rinbosari

**“El-yurt hurmati” ordeni bilan**

**Abdijabbarov Tursinbay** — “Nuroniy” jamg‘armasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi boshlig‘i
**Jabborova O‘g‘ilxon Muxtaraliyevna** — Oltinko‘l tumanidagi “Safarobod” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, Andijon viloyati
**Irkayev Abduraxim Pandjiyevich** — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zosi, Qarshi davlat universitetining milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari kafedrasi professori, Qashqadaryo viloyati
**Qalandarov Daniyor Bobaqozaqovich** — Baxmal tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori, Jizzax viloyati

**“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan**

**Abduraxmanov Shuxratbek Kushaqbayevich** — Andijon viloyati hokimi
**Mirzayev Zoyir Toirovich** — Toshkent viloyati hokimi
**Turdimov Erkinjon Oqbutayevich** — Samarqand viloyati hokimi
**Umarov Nariman Madjitovich** — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi
**Usmanov Raxmanbek Djaxangirovich** — “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining “Toshkent metropoliteni” unitar korxonasi boshlig‘i

Davomi 3-betda




# BUYUK AJDODLARIMIZ MA’NAVIY MEROSINI O‘RGANISH VA TADQIQ ETISH

## jamiyat taraqqiyoti uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi

Boshlanishi 1-betda

Kongressda IRCICA, ISESCO, TURKSOY singari xalqaro tashkilotlar, “Al-Furqon” fondi, Xalqaro Turkiy akademiya rahbar va xodimlari, dunyoning 35 davlatidan 300 ga yaqin olimlar, mutaxassislar, tadqiqotchilar ishtirok etmoqda.

24-avgust kuni Samarqanddagi kongress markazida xalqaro forumning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning anjuman qatnashchilariga tabrigini Prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov o‘qib eshittirdi.

Tabrikda kongressda bugun va kelajakka mo‘ljallangan ilmiy dastur va rejalar muhokama qilinayotgani diqqatga sazovorligi alohida ta’kidlangan. Xususan, “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” loyihasi doirasida 70 jildlik kitob-albomlar nashr qilinib, yurtimiz va chet ellardagi eng mashhur kutubxonalar, oliygoh va muzeylar, nufuzli ilm-ma’rifat maskanlariga yetkazib berildi. Ana shu ishlarning davomi sifatida anjuman kunlarida mazkur turkumdagi yana 10 ta yangi jild taqdimoti o‘tkazilishi ham muhim madaniy hodisadir, deya qayd etilgan. Shuningdek, fundamental tadqiqotlarni o‘tkazishga qaratilgan dastur, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirishdagi chora-tadbirlar o‘zaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlarni ochib berishiga e’tibor qaratilgan.

— Davlatimiz rahbari tabrigida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi eshiklari olimlar va tadqiqotchilar uchun hamisha ochiq ekanini eshitib, har birimizning qalbimizda g‘urur va iftixor uyg‘ondi, — deydi O‘zFA vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov. — Joriy yil iyul oyida mamlakatimizning yetakchi olimlari ishtirokida “Buyuk ajdodlar merosi — Uchinchi Renessans asosi” Respublika forumini o‘tkazgan edik. Forumda Islom sivilizatsiyasi markazi bilan bog‘liq 600 dan ortiq taklif bildirildi. Bugungi kongress ham ana shu takliflardan kelib chiqib, xalqaro tajribani chuqurroq o‘rganish maqsadida tashkil etildi.

Kun tartibiga ko‘ra, olimlar ishtirokida “Markaziy Osiyo islomgacha bo‘lgan davrda”, “Jaholatga qarshi ma’rifat: islom ma’naviy merosini ommalashtirishning dolzarb masalalari”, “Ta’lim va fan islom sivilizatsiyasining asosi”, “O‘zbekiston madaniy merosi dunyo to‘plamlarida”, “Arxitektura, san’at va hunarmandchilik: kelajak uchun meros”, “Innovatsion muzeylar — kelajak muzeyi: Islom sivilizatsiyasi markazi va



Xalqaro anjuman

Imom al-Buxoriy muzeylari ko‘rgazmasida yangi texnologiyalar”, “O‘zbekiston madaniy merosi dunyo to‘plamlarida: dunyo va milliy kolleksiyalar bo‘yicha ishlarning yangi yo‘nalishlari” kabi mavzularda seminarlar, muhokamalar tashkil etildi.

Unda Islom sivilizatsiyasi markazi va xorijiy dizaynerlar o‘z loyihalari, konsepsiyalari bilan o‘rtoqlashdi. Shuningdek, ilmiy xodimlar tomonidan muzeylar va Imom Buxoriy markazining ko‘rgazmalari konsepsiyalari taqdim etilmoqda. Milliy mutaxassislar hamkorlikdagi loyihalarni, jumladan, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy muzeyining ko‘rgazmalari bo‘yicha videoroliklar namoyish qilinyapti.

— Kongressning asosiy maqsadi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mega-loyihasini xalqaro ilmiy jamoatchilikka taqdim etishdan iborat, — deydi markaz direktori Firdavs Abduxoliqov. — Ayni paytda faoliyatimizning to‘laqonli ishga tushishi uchun jadal harakatlar boshlangan. Markaz dunyo ahamiyatiga molik ulkan madaniy, ma’rifiy maskan sifatida qad rostlamoqda. Barcha sa’y-harakatlarimiz mamlakatimizda diniy-ma’rifiy sohada olib borilayotgan islohotlar ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Markaz zimmasidagi ulkan vazifalarni ado etish uchun mamlakatimiz va xorijdagi barcha ilmiy kuch va imkoniyatlar safarbar etilmoqda. Akademik tadqiqotlardan olingan ilmiy xulosalar markazda amaliy yoki nazariy shaklda o‘z ifodasini topadi. U ham ilmiy, ham jozibador maskanga aylanadi. Ayni damda sohaga oid muloqotlarga mo‘ljallangan ilm o‘chog‘i bo‘ladi. Shu sabab yirik xalqaro anjumanda e’tiborni ko‘proq markazning kutubxona va muzeylari fondini xalqaro andozalarga mos, bugungi kun talablaridan kelib chiqib boyitish, markaz faoliyatini yanada kengaytirishga qaratildi.

Xalqaro kongress dunyoning 35 dan ziyod davlatidan 300 ga yaqin olimlar, tadqiqotchilar, madaniy meros sohasida faoliyat yuritayotgan ekspertlar hamda madaniyat, san’at arboblarini bir maydonga jamladi. Fursatdan foydalanib, ularning fikrlari bilan qiziqdik.

— Mamlakatingizda barcha sohalar qatori ta’lim, ilm-fan, madaniyat va ma’rifat, buyuk ajdodlar merosini saqlash borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarni muntazam kuzatib boramiz va behad quvonamiz, — deydi “Sandro Tetti” Rim nashriyot uyi asoschisi va direktori Sandro Tetti. — Zotan, O‘zbekiston zaminidan jahon tamadduniga munosib hissa qo‘shgan buyuk allomalar yetishib chiqqan. O‘zbek xalqining bebaho madaniy merosi bugun dunyoning turli hududlarida saqlanmoqda va o‘rganilmoqda. Shu bilan birga, jahonning yuksak minbarlaridan turib, islom dinining insonparvarlik va ma’rifatparvarlik mohiyatini keng targ‘ib etishga qaratilgan O‘zbekiston tashabbuslari xalqaro miqyosda qo‘llab-quvvatlanayotgani bejiz emas. Zotan, bugun dunyo ahli ana shunday ezgu da’vatlarga, xayrli tashabbuslarga katta ehtiyoj sezmoqda.

— O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi islom merosini tadqiq etishga qaratilgan bir qator xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan izchil hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan, — deydi Islom tarixi, san’ati va madaniyati tadqiqotlari markazi —

IRCICA rahbari Mahmud Erol Qilich. — WOSCU boshqaruvi a’zolaridan biri sifatida aytishim mumkinki, ushbu zamindan yetishib chiqqan buyuk allomalarning Islom olami va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini o‘rganish, muqaddas dinimizning insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish o‘ta muhim masala. Guvoh bo‘lyapmizki, markaz binosi sharqona an’analar hamda zamonaviy arxitektura talablari asosida qad rostlamoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Samarqand viloyatida qayta bunyod etilayotgan Imom al-Buxoriy majmuasi ham tez orada Islom olamining eng mashhur qadamjolaridan biriga aylanishi kutilmoqda. Bunga kuni kecha ushbu inshootlarga qilgan tashrifimiz davomida guvoh bo‘ldik.



— Kongress davomida markaz ekspozitsiyalari mazmunini yaxshilash bo‘yicha ekspert baholari va tavsiyalar olinadi, O‘zbekistonning madaniy-tarixiy merosini saqlashga qaratilgan bir qator muhim loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha muzokaralar olib boriladi, — deydi Qatar Milliy kutubxonasi direktori Tan Husim xonim. — Shuni ma’lum qilishdan mamnunmanki, bizning kutubxona islom merosi durdonalari saqlanayotgan dunyodagi yirik ma’rifiy maskanlar qatorida turadi. Kelgusida ushbu kutubxona bilan hamkorlikda kitob-albomlar, nodir asarlarning faksimile nusxalarini yaratish niyatidamiz.

VIII xalqaro kongress doirasida “O‘zbekiston madaniy merosi” turkumidagi kitob-albomlarning 71-80 jildlari, shuningdek, bir qator bezakli nashrlar taqdimotlari o‘tkazildi, kitob-albomlar ko‘rgazmalari tashkil qilindi. Xorijiy mamlakatlardagi bir qancha ilmiy-ma’rifiy muassasalar, tashkilotlar bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Yalpi yig‘ilishdan so‘ng kongress o‘z ishini yettita sho‘ba doirasida Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy muzeylarining ekspozitsiyalari bo‘yicha taqdim qilingan loyihalarni muhokama qilish bilan davom ettirdi. Shuningdek, AQSH va Rossiyadan kelgan mutaxassislar ishtirokida Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy muzeyi uchun zamonaviy texnologiyalar loyihalarining taqdimoti o‘tkazildi. Muhokama va ma’ruzalar yakuni bo‘yicha muzey zallari ekspozitsiyalari uchun taklif etilgan loyihalar tasdiqlandi.

Kongress o‘z ishini davom ettirmoqda. Kun tartibida O‘zbekistonning boy madaniy merosi, uni saqlash va ommalashtirish maqsad qilingan. Shuningdek, islom sivilizatsiyasining qimmatli madaniy va ma’naviy mulkini kelajak avlodga yetkazish kabi muhim masalalar muhokama qilinadi.





**“VIII xalqaro kongress doirasida “O‘zbekiston madaniy merosi” turkumidagi kitob-albomlarning 71-80 jildlari, shuningdek, bir qator bezakli nashrlar taqdimotlari o‘tkazildi, kitob-albomlar ko‘rgazmalari tashkil qilindi. Xorijiy mamlakatlardagi bir qancha ilmiy-ma’rifiy muassasalar, tashkilotlar bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.**

**Nodir MAHMUDOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# TERMIZIYLAR ILMIY XAZINASI QAYTA YUZ OCHMOQDA

**Davlatimiz rahbarining yaqinda qabul qilingan “Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, qator ishlar amalga oshiriladi. Xususan, 2024-yil oktabr oyida alloma tavalludiga bag‘ishlangan yirik xalqaro tadbir o‘tkaziladi. Shuningdek, allomaning “Ash-Shamoil al-Muhammadiyya” va “Sunani Termiziy” asarlarining akademik tarjima va sharhi tayyorlanib, nashr etiladi. Imom Termiziy haqida ilmiy-ommabop hujjatli film suratga olinadi va spektakl sahnalashtiriladi. Sherobod tumanidagi Imom Abu Iso at-Termiziy majmuasida termiziy allomalar hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan asarlarning nodir qo‘lyozma va nashr nusxalari hamda kitoblari ko‘rgazmasi tashkil etiladi.**

Munosabat





Surxon vohasiga kelgan sayyoh borki, Termiz shahri yonginasidan oqib o‘tuvchi Amudaryo yoqasida joylashgan Al-Hakim at-Termiziy majmuasi va Sherobod tumanidagi buyuk muhaddis Imom at-Termiziy maqbarasini ziyorat qilishga oshiqadi.

Abu Iso Muhammad ibn Iso az-Zahhok as-Sulamiy al Bug‘iy at-Termiziy Movarounnahrning mashhur muhaddislaridan bo‘lib, hijriy 209 (milodiy 824) yili Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida tug‘ilgan. Termiz o‘sha davrda Samarqand va Buxoroni Balx kabi qadimiy ilm markazlari bilan bog‘lab turuvchi shahar bo‘lgan. Shu bois, bu yerda ilm-ma’rifat yuksak darajada rivojlangan. Bo‘lajak buyuk muhaddis dastlabki ta’limni Termiz shahrida oladi.

Bolaligidan nihoyatda ziyrakligi, misli ko‘rilmagan o‘tkir xotirasi, noyob iqtidori bilan tengqurlaridan ajralib turgan Termiziy turli fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallaydi. U zamonasining buyuk muhaddislaridan hadis tinglash maqsadida Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashaydi.

Manbalarda yozilishicha, hadis to‘plash va o‘rganishda Termiziy har bir qulay fursatdan unumli foydalangan. U yo‘lda, safarda bo‘lganda yoki bir joyda muqim turganda ham ustozlaridan, uchratgan roviylaridan eshitgan hadislarni darhol yozib olib, ularni tartibli ravishda, alohida-alohida qayd qilib borgan. O‘z davrining yetuk muhaddis olimi sifatida tanilgan Termiziy ko‘pdan ko‘p shogirdlarga ustozlik ham qilgan.

Imom Termiziyning favqulodda o‘tkir zehni va kuchli xotirasi tillarda doston bo‘lgan.

Rivoyat qilishlaricha, shayxlardan biri Imom Termiziyni imtihon qilish uchun unga qirqta g‘arib hadisni aytib, savol beradi. Imom Termiziy qirqta hadisni birorta harfda ham xato qilmay, avvalidan oxirigacha yoddan o‘qib beradi. Shayx bundan ta’sirlanib, “Senga o‘xshagan odamni ko‘rmaganman”, deydi.

Imom Termiziy hijriy 250-yili Nishopurda Imom Buxoriy bilan uchrashib, uning huzurida hadis ilmini chuqur o‘rganadi, shu dargohda kamol topadi. Imom Buxoriy Termiziyga qarata: “Sen mendan foyda olganingdan ko‘ra men sendan ko‘proq foyda oldim”, degani aytiladi.

— Imom Termiziydan boy meros qolgan. U — ummon. Uning ijodiga o‘sha davr allomalarining ta’siri yuqori bo‘lgan. Masalan, u “Al-Kitab ul-aziym” deb nomlangan eng mashhur kitobini Imom Buxoriy bilan uchrashgandan keyin yoza boshlagan. Bu kitob ko‘proq “Sahihi Termiziy”, “Sunani Termiziy” deb ataladi. “Sunani Termiziy” g‘oyat mo‘tabar majmua bo‘lib, takrorlari oz, tartibi go‘zal, o‘ziga xos uslubga ega ulkan ilmiy asar. Imom Termiziy hayoti davomida “Sunani Termiziy”, “Ilalu mufrad”, “Al-ilal fil-hadis”, “Ilalu fiy axiri jomi’”, “Kitab uz-zuhd”, “Kitab ut-tarix”, “Asma us-sahoba”, “Kitabu fil asaril mavqufa”, “Risola fil-xilof val-jadal”, “Kitabul-asmo val-kuna” kabi ko‘plab asarlar yozib qoldirgan, — deydi Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqotchisi Sarvar To‘liboyev. — Prezidentimizning “Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar esa bugungi globallashuv va din bilan bog‘liq tushunchalar qorishgan bir paytda yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lda, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Imom Termiziy hayotini, butun borlig‘ini, iqtidorini ilm rivojiga, hadis ilmi ravnaqiga baxshida etgan. Hayotining asosiy qismi hadis to‘plash va rivoyat qilish bilan o‘tgan. Ayrim manbalarda u tug‘ma ko‘zi ojiz bo‘lgan deyilsa, boshqa manbalarda ustozi Imom Buxoriy vafotidan so‘ng shu holga tushgani aytiladi.

Imom Termiziy hijriy 279, milodiy 892-yili o‘zi tug‘ilgan va hozirgi Sherobod tumaniga qarashli Bug‘ qishlog‘ida vafot etadi. Imom Abu Iso at-Termiziy dafn etilgan joyda XI-XII asrlarda dastlabki maqbara bunyod etiladi. Sherobod tumanidagi ushbu majmua 1990-yilda qayta ta’mirlanib, ziyoratgohga aylantirildi. Shuningdek, 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan maqbarada yana bir ta’mirlash ishlari olib borilgan.

2016-2017-yillarda Abu Iso at-Termiziy majmuasida ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Xususan, 450 o‘rinli masjid, tahoratxona, oshxona, beshta sharqona ayvoncha va uchta sharqona darvoza qurildi. Imom Termiziy maqbarasi qayta ta’mirlanib, uning yonida qo‘shimcha ziyoratgoh qad rostladi.

“Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq esa Imom Termiziy ziyoratgohiga olib boruvchi yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash, jumladan, yodgorlik majmuasi va unga tutash hududlarni obodonlashtirish ishlari yangi bosqichga ko‘tariladi.

— Prezidentimizning 2017-yil 14-fevraldagi qarori asosida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi, — deydi markaz direktori Muzaffarxon Joniyev. — O‘tgan 7 yil davomida Imom Termiziy singari 100 ga yaqin termiziyning ijodiy va ilmiy merosini izlab topish, chuqur o‘rganish, ular abadiy orom topgan maskanlarni obod qilish borasida beqiyos ishlar bajarildi. Allomalarning qator asarlari tarjima qilinmoqda, ilmiy risolalar va maqolalar yozilmoqda, tadqiqotlar olib borilmoqda. Qaror shu keng miqyosli ishlarning uzviyligini belgilab berdi.

Ba’zilar Imom Termiziyni Al-Hakim at-Termiziy bilan adashtiradi. Milodiy 824-892-yillar oralig‘ida yashagan Muhammad ibn Ali Abu Abdulloh al-Hakim at-Termiziy so‘fiylik davri mutafakkiridir. U hadisshunoslik va huquqshunoslikni yaxshi o‘zlashtirgan. Zamondoshlari dunyoqarashi kengligi va chuqur tafakkur sohibi bo‘lgani uchun Al-Hakim al-Termiziyni “Termizdan chiqqan donishmand” deb atagan.

— Ba’zi manbalarga ko‘ra, Al-Hakim at-Termiziyning otasi Ali ibn al-Hasan o‘z davrida hadis ilmining ko‘zga ko‘ringan olimlaridan biri sifatida mashhur bo‘lgan. Arab tarixchisi al-Xatib al-Bag‘dodiy mashhur “Tarixi Bag‘dod” (“Bag‘dod tarixi”) asarida yozishicha, u musulmon olamining eng yirik markazlaridan sanalgan Bag‘dod shahrida o‘z davrining mashhur ulamolari bilan hadis ilmining turli masalalari bo‘yicha qizg‘in bahs va munozaralarda ishtirok etgan, — deydi Termiz davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Bobonazar Murtazoyev. — Bo‘lajak alloma Termiz shahrida tavallud topib, 8 yoshidan dunyoviy va diniy ilmlarni chuqur egallaydi. U 28 yoshida sayohatga chiqadi. Vataniga qaytgan Termiziy ilm yo‘lini davom ettiradi. Ayrim nizolar ortidan yurtdan chiqib ketadi. U Balx, keyinchalik Nishopur shahridan qo‘nim topadi. Umri oxirlarida Termizga qaytadi. Al-Hakim at-Termiziy bu yerda Balx shahri va Payg‘ambar oroli ko‘rinib turadigan eng baland qirlik, xushmanzara va bahavo joy tanlab, masjid va xonaqoh qurdirgan. Bu maqbara Eski Termizda, Amudaryo qirg‘og‘ida qad ko‘tarib, maqbarada ilm ahli to‘planar edi, olim vafotidan keyin ushbu xonaqohga dafn etilgan.

Al Hakim at-Termiziy maqbarasi IX-XV asrlarga oid majmua bo‘lib, unda masjid, maqbara, xonaqoh va sag‘ana mavjud. Dastlab XI asrda maqbara shimolida uch gumbazli ayvon, ayvon g‘arbiy devorida pishiq g‘isht bilan qoplangan mehrobdan iborat masjid barpo qilingan. Maqbara bir necha marta ta’mirlangan. Chingizxon qo‘shini vayron qilgunga qadar XII asrda ham ta’mir etilgan. XIII asr oxirlarida Termizda mo‘g‘ullar bosqini asorati tugatilgandan keyin majmua birmuncha kengaytirilgan. 2010-yilda ziyoratgohda katta obodonlashtirish ishlari bajarilgan. 2016-yil avgust oyidan 2017-yil may oyigacha qayta ta’mirlangan. Hozirgi kunda mazkur ansambl turizm maskanlaridan biri sifatida sayyohlar, ziyoratchilar e’tiborini qozonmoqda.

**Sarvar TO‘RAYEV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

**Xalqimiz bugun g‘oyibdan kelmagan davlat mustaqilligining 33 yilligini nishonlash arafasida turibdi. Ushbu kunlarda 1980-yillarning etni junjiktiradigan ruhiy-ma’naviy ozurdaliklarini, yuraklarni zardobga to‘ldirgan paytlarning achchiq iztiroblarini, o‘sha ayozli kunlarini eslamaslik mumkin emas.**





**Sharif QOBILOV,**
*Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, polkovnik*

Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!

# U KUNLAR ERTAK BO‘LIB QOLSIN

## YOXUD SUVEREN, DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOIY VA DUNYOVIY DAVLAT BARPO ETISH OSON KECHMAGAN

Boshlanishi 1-betda

### “Desantchi”lar yoxud ommaviy qatag‘onning yangi ko‘rinishi

O‘tgan asrning 80-yillarida sobiq ittifoqda ma’naviy-siyosiy vaziyat izdan chiqdi. Sobiq sovet jamiyatining tashkiliy negizlari — rejalilik, yaxlit va markazlashgan boshqaruv asoslari barbod etilishi tanglikka olib keldi. Xalqning ijtimoiy holatidagi betayinlik haddan ziyod kuchaydi. Aholining juda oz bo‘lsa-da, ehtiyojini ta’minlash kafolati keskin bo‘shashib ketdi.

O‘zbek xalqi sobiq tuzumdan ro‘shnolik ko‘rmadi. Bunday xulosaga kelishimizga Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi Aleksandr Yakovlevning quyidagi fikrlari isbot bo‘ladi: “Aytaylik, O‘zbekiston taraqqiyotidagi sotsialistik davr xalqning moddiy hayotiga nimadir qo‘shgan bo‘lsa bordir, lekin bu insoniy munosabatlarning axloqiy jihatdan rivojlanishini mutlaqo anglatmaydi. Chunki sobiq ittifoqda sotsialistik tuzum amal qilgan emas, balki lagerlar, qatag‘onlar, surgun va qamoqxonalardan iborat bo‘lgan feodalizm hukm surgan edi”.

“Qabohat saltanati” kitobida keltirilishicha, 1917-1929-yillardagi fuqarolar urushida 15 million, 1929-1933-yillardagi ocharchilik davrida 8 million, 1933-1939-yillardagi qatag‘onlarda 16 million, 1945-1954-yillardagi surgunlar va ochlikda 4 million kishi qurbon bo‘lgan. Xulosa qilib aytganda, sobiq sovet tuzumi ana shu yillarda aholisining uchdan bir qismini — yetmish milliondan ziyodini ataylab yo‘qotgan.

“Bosmachilik” deb atalgan milliy ozodlik harakatiga qo‘shilganlardan 16 yil davomida 1 million 200 ming o‘zbek qurbon bo‘ldi. 1,5 million musulmon adolatsizlikka chiday olmay, xorijga chiqib ketdi. 1 million 700 ming kishi “bosmachilik” harakatini qo‘llab-quvvatlaganlikda ayblanib, Sibirga surgun qilindi.

Sobiq sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston chor hukumati davrida qanday bo‘lsa, o‘shanday strategiya maydoniga aylantirildi. Aniqrog‘i, sobiq ittifoqning paxta mustaqilligi siyosati O‘zbekiston orqali amalga oshirildi. Qishloq xo‘jaligining paxtachilikdan boshqa hamma sohasi qisqartirib yuborildi. O‘zbeklar faqat paxta yetishtiruvchi dehqonlarga aylandi. Sanoat, transport, aloqa tarmoqlari eng quyi ko‘rsatkichga tushdi. Ijtimoiy soha, fan, ta’lim, madaniyat va sog‘liqni saqlash ittifoq ko‘rsatkichidan eng past darajada tashkil etildi. Ekologik muammolar asta-sekin chuqurlashib borib, oxir-oqibatda butun insoniyat fojiasiga aylandi.

Yurtimiz uchun vaziyat nihoyatda og‘ir edi: markazdan tashlangan “desantchi”lar, turli soxta mafkurachilar (ular ichida, afsuski, o‘zimizdan chiqqanlar ham bor edi) xalqimizga ko‘p ziyon yetkazib, poraxo‘rlikda, qo‘shib yozishda ayblab, har xil tuhmat va bo‘htonlar yog‘dirardi.

Gdlyan guruhida ishlagan qonxo‘r tergovchilardan biri Kartashyanning “O‘zbekistonni tikanli sim bilan o‘rab, minora tepasiga soqchi qo‘yish kerak, chunki bu yerdagilarning hammasi o‘g‘ri va poraxo‘r”, degan gapi “Сельская правда” gazetasining 1990-yil 30-yanvar sonidagi “Narod doljen znat pravdu” maqolasida qayd etilgan.

“Аргументы и факты” gazetasining 1988-yil sentyabr sonida o‘zimizdan chiqqan “kattakon”ning kattagina intervyusi e’lon qilingan. Unda bunday jumlalar yozilgan: “Respublikada jamiyat hayotining barcha jabhalarini sog‘lomlashtirish uchun turg‘unlik davri merosiga qarshi qattiq, og‘ir kurash ketmoqda. KPSS Markaziy Komiteti keyingi to‘rt yilda O‘zbekistonga yuzlab malakali kadrlar yubordi. Avvalo, respublikaga shunday ko‘lamli yordam keyingi o‘ttiz yil mobaynida birinchi marta amalga oshirilganini ta’kidlamoqchiman. Yangi xodimlarning kelishi bizning chinakam baxtimiz bo‘ldi”.

Aslida esa “sotsialistik qonunchilikni tiklash uchun” markazdan qancha ko‘p “desantchi” kelsa, bosqinchilik, odam o‘ldirish, o‘g‘irlik, jumladan, avtomobil o‘g‘irligi, uyushgan jinoyatchilik shuncha tez o‘sib bordi. O‘sha paytlarda respublikadagi uyushgan jinoyatchilarning “cho‘qintirgan ota”lari aynan Moskvada in qurgani ham oddiy gapdek aytilaverardi. Odamlarning huquq-tartibot idoralariga ishonchi qolmagach, yordam taklif qilgan har qanday kimsa qarshisiga bosh egib borardi. Bu vaziyatdan esa ashaddiy jinoyatchilar, turli “razborchi”lar unumli foydalanar, pana-pastqamlarda joylashgan choyxonalar “adolat mahkamalari”ga aylanib qolgandi.



“Аргументы и факты” gazetasidagi mazkur intervyuning davomiga e’tiboringizni qaratmoqchimiz: “Respublikada so‘nggi to‘rt yil ichida ellik sakkiz ming mas’ul xodim vazifasidan bo‘shatildi. Men o‘zim shaxsan Telman Xorenovich Gdlyan gruppasining ishini g‘oyat ijobiy baholayman. SSSR Prokuraturasining xodimlari bilan qo‘lni qo‘lga berib ish olib bormoqdamiz. Ular respublikada adolat o‘rnatish, Rashidov atrofidagi odamlarni javobgarlikka tortishda jon kuydirib, keskin kurashmoqda”.

Bu so‘zlarni faqat siyosiy irodasi va saviyasi nochor, fuqarolik pozitsiyasi zaif, qo‘g‘irchoqqa aylangan odamgina aytishi mumkin.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mustaqillikning beqiyos ahamiyati haqidagi quyidagi fikrlari yuksak e’tiborga loyiq: “Agar har bir xalq, har bir davlat mustaqil bo‘lmasa, boshqalar uning nafaqat dehqonini, nafaqat ishchisini, hattoki shoiru olimini ham, davlat arbobini ham istagancha tahqirlashi, insoniy sha’nini tuproqqa qorishi mumkin ekan”.

Mustabid tuzum o‘ziga sadoqat bilan xizmat qilgan Sharof Rashidovdek ulug‘ insonni oxir-oqibatda turli tuhmat va malomatlarga duchor etdi. “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi”, “Rashidovchilik” degan bo‘hton gaplar bilan uning aziz nomini, butun xalqimizni yomonotliq qildi.

Ko‘pchilik “desantchi”lar deganda Gdlyan va Ivanovlarga ko‘p urg‘u beradi. Bunday yondashuv odamlarni chalg‘itadi. “Desantchi”lar ularni mafkuraviy qo‘llab-quvvatlovchi firqaviy apparat hamda o‘sha paytda kuch ishlatuvchi tuzilmalar vakillaridan iborat yuzlab katta va kichik rahbarlar edi.

Leonid Levitinning “O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida” kitobida yozilishicha, o‘sha davrda 400 dan ziyod kishi — Rossiya, Ukraina va boshqa respublikalardan yig‘ilgan Moskva “desanti” O‘zbekistonga partiya tashkilotini “mustahkamlash” uchun yuborilgan.

Bundan tashqari, “qayta qurish” bahonasida bu siyosat davom ettirildi. Toshkent shahrining “desantchi”, “firqaviy” rahbari Satin besh yil ichida 384 ming yevropalikni Toshkentga olib kelib joylashtirdi. 1983-1988-yillarda Moskvadan yurtimizga maxsus ta’lim berilgan 300 ga yaqin rahbar va rahbarcha yuborildi. Bu haqda Moskva matbuoti “O‘zbekistonga vijdon olib borildi”, deb yozdi. Aslida, ular uchiga chiqqan shovinistlar, tipik mustamlakachilar edi.

Shunday qilib, mamlakatda o‘zbeklarga, O‘zbekistonga qarshi jamoatchilik fikri ham shakllandi. Ba’zilar ko‘ziga o‘zbeklar o‘g‘ri, poraxo‘r, qaroqchi, tekinxo‘r sifatida ko‘rina boshladi. Gdlyan guruhi O‘zbekistonning o‘zida ham dahshat va qo‘rquvga asoslangan muhit yaratmoqchi bo‘ldi. Hamma Gdlyandan qo‘rqishi, aytgan gapini qilishi, qonunsizlik va adolatsizliklarga ko‘nikishi kerak ekan. Fikrimizcha, muayyan davrda ular shunday muhit yarata olgan ham. Respublikaning eng katta rahbarlari ham Gdlyan, Ivanov nomini eshitsa, dahshatga tushadigan, ularning jinoiy beboshliklariga qarshilik qila olmaydigan darajada edi. Natijada butun boshli millat himoyasiz bo‘lib qoldi.

Markazning “tozalash” kampaniyasi O‘zbekistonning barcha viloyatidagi ko‘pdan ko‘p tajribali va ishbilarmon mutaxassislarni, jonkuyar insonlarni o‘z domiga tortib, hududlardagi boshqaruv tizimini izdan chiqardi, o‘zak kadrlar asosiga putur yetkazdi.

O‘sha davrda respublika mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini markaz tomonidan tayinlangan vakillar boshqarar edi: respublika prokuraturasini — oldin Buturlin, keyin esa Usatov; Ichki ishlar vazirligini — Kamalov, Didorenko, Gusev; Davlat xavfsizligi qo‘mitasini — Melkumov; Turkiston harbiy okrugini — Kondratyev.

Markaz rahbariyati O‘zbekistondagi “vakil”larini mafkuraviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida respublikaga Anishchev, Ogarok, Yefimovni yubordi. Markaz Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi “desantchi”lar O‘zbekistonda aksariyat noqonuniy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishini avvaldanoq tushunib yetgan va buni anglagan holda nafaqat Ichki ishlar vazirligi tizimiga, balki respublika prokuraturasiga ham o‘z vakillarini qonunbuzarliklarni “qonuniylashtirish” maqsadida yuborishni faollashtiradi.

1983-1989-yillarda O‘zbekiston prokuraturasi tizimidagi barcha rahbarlik lavozimiga “desantchi”lar vakillari tayinlandi. 1984-yilda O‘zbekiston SSR prokurori va uch o‘rinbosari, boshqarma boshliqlari markazdan kelgan xodimlarga almashtirilgan bo‘lsa, barcha viloyatlar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston ASSR prokurori, Toshkent shahri prokurori, keyingi bosqichlarda tuman darajasidagi prokurorlar ham markazdan kelgan prokurorlarga almashtirildi.

### Millionlab egatlarga sochilgan xalqim...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 22-noyabr kuni Toshkent viloyatidagi saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida bunday degan edi: “Aziz do‘stlar, men mana shu ma’ruzaga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida ayni shu masalaga aloqador qiziq bir hujjatga duch keldim. Ruxsatingiz bilan bugun uni sizlarning e’tiboringizga havola etmoqchiman. Mana, eshiting, bu hujjatda nima deb yozilgan: “250 gramm makaron mahsuloti, yarim litr o‘simlik moyi, 800 gramm guruch, 5 dona tuxum, 100 gramm quruq choy, 100 gramm mol yog‘i”. Mana, hozir zalga qarab turib, men ko‘pchilikning, ayniqsa, yoshlarimizning hayron bo‘lib turganini kuzatyapman. Faqatgina yoshi ulug‘ odamlar nimanidir tushungandek bo‘lyapti, bu g‘alati ro‘yxat ularga nimanidir eslatyapti. Bu — 90-yillarning boshida aholi jon boshiga maxsus talon bilan oyda bir marta beriladigan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarining ro‘yxati. Ya’ni bir oyda bir odam faqat shuncha oziq-ovqat olish huquqiga ega edi! Men o‘sha yillari Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek tumani hokimi bo‘lib ish boshlagan edim. Mana shu mahsulotlarni undirib topib kelish, uni aholiga talon bilan tarqatib berish qanday katta muammo bo‘lganini bugun ham juda yaxshi eslayman. Farzandlarimiz, yoshlarimiz uchun bu voqealar go‘yo ertak bo‘lib tuyulishi mumkin. Mayli, u kunlar ertak bo‘lib qolsin, lekin sobiq tuzumdan bizga qanday ayanchli meros qolganini, qanday qiyinchiliklarni boshimizdan kechirib, bugungi tinch va osoyishta, to‘kin-sochin kunlarga yetib kelganimizni goh-goh eslab tursak, o‘ylaymanki, foydadan xoli bo‘lmaydi”.

Darhaqiqat, 1991-yil 7-martda “Комсомольская правда” gazetasida chop etilgan ma’lumotga ko‘ra, O‘zbekistonda 9 milliondan ziyod kishi bechorahol kun ko‘rgan, aholining 47 foizga yaqinini alohida shart-sharoitga muhtoj bolalar tashkil etgan, O‘zbekistonda o‘lim ko‘rsatkichi mamlakat bo‘yicha (sobiq ittifoq nazarda tutilmoqda — muallif) juda yuqori darajada bo‘lgan.

Yurtimizda 1980-yillarda yuzaga kelgan muammoning ildizi sobiq tuzum davriga, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan, paxta yetishtirish eng katta maqsad sanalib, hatto odamlarning hayoti va salomatligidan ustun turgan o‘sha mustabid zamonga borib taqaladi. Dalada ishlab yurgan odamlar ustidan samolyotdan zaharli dorilar sepilgani, qancha-qancha bolalar sariq kasalligi va boshqa dardlarga yo‘liqqani hamon esimizda.

“Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” degan siyosiy kampaniyalar paytida qizil imperiya markaziy matbuoti el-yurtimiz sha’nini tahqirlab, boshiga “qo‘shib yozish”, “yulg‘ichlik”, “ko‘zbo‘yamachilik”, “boqimandalik” kabi tuhmat va malomatlar bo‘ronini yog‘dirgan. “Desantchi” tergovchilar soxta ayblovlar asosida minglab mutlaqo begunoh kishilarni qamoqqa tashlagan. Sudlanuvchilarning xotinlari, bola-chaqalari ko‘chaga haydalib, turli xo‘rlash va kamsitishlarga duchor etildi.

“Desantchi”lar yurtimizdagi qariyb 6-yillik faoliyati davomida mamlakatni xonavayron, xalqni talon-taroj qildi, odamlar qalbiga qo‘rquv soldi. Beayov va shafqatsiz bedodliklarni ko‘rib turgan xalqimiz butunlay umidsizlikka tushdi. Jamiyatda na partiyaga, na siyosatga, na davlatga va yo‘lboshchilariga ishonch qoldi. Hadik va qo‘rquv girdobiga tushgan odamlarimizda yaratuvchanlik, bunyodkorlikka intilish qariyb yo‘q bo‘lib ketdi. Hayotga befarq qarash, loqaydlik aksariyatning yashash tarziga aylandi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotda uzilishlar



yuz berishi kuchaydi. O‘sha davrdagi keskin o‘zgarishlar muammolarni keltirib chiqardi va aholining qashshoqlashuviga olib keldi.

Sobiq ittifoqning ko‘pgina respublikalaridagi turmush darajasi Rossiyadagidan ham yuqori edi. Biroq O‘zbekiston bu qatordan o‘rin olmagandi. Respublika ulkan tabiiy mineral xomashyosiga ega bo‘lsa-da, xalq paxta dalalarida ter to‘kib mehnat qilar, zaharli moddalardan nafas olar va yana kambag‘alligicha qolaverardi.

Paxta yakkahokimligi avjiga chiqqan o‘sha og‘ir yillarning har bir kuni katta yoshdagilarning xotirasida muhrlanib qolgan. Ishga yaroqli aholining barchasi — ayollar, bo‘yi ketmon dastasidan past bolalar, hatto keksalar ham erta tongdan to kech shomgacha davom etadigan og‘ir dala ishlarini bajarishga jalb qilingan edi. Paxta terimida qat’iy norma belgilanardi. Uni bajarolmaganlar fonus yorug‘ida kechasi ham ishini davom ettirardi. Ayollar beshikdagi bolasini ham dala boshiga olib chiqardi.

Respublika rahbariyati markazdagi “dohiy”larga belgilangan reja xayoliy ekanini tushuntirmoqchi bo‘lganda ularning so‘zi qo‘pollik bo‘lib tuyulardi. Bu jihatdan Vasiliy Yesinning “Ispoved uznika perestroyki” kitobida keltirilgan bir lavha diqqatga sazovor. Yesin 80-yillarning boshlarida O‘zbekiston Vazirlar kengashi raisi o‘rinbosari bo‘lib ishlagan, keyin esa “paxta ishi” tutquni bo‘lgan edi.

U bunday yozadi: “1983-yil kuzida I.B.Usmonxo‘jayev respublika rahbari bo‘lgan paytda telefon orqali o‘sha vaqtda KPSS Markaziy qo‘mitasi siyosiy byurosi a’zosi, Markazqo‘mning qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha kotibi M.S.Gorbachyovga oshirilgan paxta tayyorlash rejasini amalda bajarib bo‘lmaydi, dalalarda hosil tugagan deb tushuntirmoqchi bo‘ldi. Shunda Gorbachyov g‘azabga to‘lib: “O‘zbekistonda qancha aholi yashaydi?” deb so‘ragan.

— 17 million.

— Rejani bajarish uchun, kerak bo‘lsa, 17 million kishini paxta terimiga chiqarish kerak, — degan Gorbachyov”.

Adolatsizlik shu darajaga yetgan edi. Iqtisodchi olimlarning qayd etishicha, bir tonna paxta yetishtirishga 340 kishi soat sarflangani holda bir tonna g‘allaga bor-yo‘g‘i 12 kishi soat ketardi. Boshqacha aytganda, xarajatdagi farq qariyb 30 barobarni tashkil etardi. Biroq mahsulotni sotishdagi narx faqat 4-5 barobar farq qilardi, xolos. Mutaxassislarning aytishicha, o‘tgan asrning 70-80-yillarida milliy daromad O‘zbekiston aholisi jon boshiga hisoblaganda sobiq ittifoq bo‘yicha o‘rtacha darajadan 3 barobar kam bo‘lgan.

Nufuzli olmon siyosatshunosi Uve Xalbax o‘sha payt O‘zbekistondagi inqiroz to‘g‘risidagi materiallariga “Oq oltin — oq ajal”, deb original bo‘lmasa-da, ta’sirchan nom bergan.

### Paxta yakkahokimligining halokatli oqibatlari

Sobiq sovet davrida ekologiya sohasidagi talablarning buzilishi, boylik deb inson taqdiri bilan hisoblashmaslik natijasida kimyoviy moddalarning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida qo‘llanishi hayot xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

6 million tonna paxta yetishtirish rejasini O‘zbekiston xalqi bo‘yniga bo‘yinturuqdek osib qo‘yib, uni bajarish uchun faqatgina tomlarimizga paxta ekish qolgan edi. Haqiqatan, paxta yakkahokimligi shu qadar avjiga chiqqandi, birgina Andijondek aholi zich yashaydigan viloyatda ekin maydonining 88 foizini g‘o‘za egallab olgandi.

Paxta yakkahokimligi, ilmiy asoslangan almashlab ekish buzilgani, yerning tinkamadori qurib ketgani, suv manbalari imkoniyati tobora kamayib borgani qishloq xo‘jaligiga halokatli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish cheklab qo‘yildi. Aholini shu mahsulotlar bilan ta’minlash masalasi keskinlashdi.

Ushbu hodisalar Orol fojiasini keltirib chiqardi. Bir paytlar noyob va go‘zal dengizlardan biri bo‘lgan Orol bir avlod hayoti davomida deyarli qurib va yo‘qolib borayotgan suv havzasiga aylandi. Qariyb 40-50-yil mobaynida dengiz akvatoriyasi yetti barobar qisqardi. Suv hajmi 13-marta kamaydi. Uning minerallashuvi esa o‘nlab barobar oshib, dengizni tirik organizmlar yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada qariyb barcha hayvonot va nabotot olami tanazzulga uchradi va yo‘qoldi.

1960-yildagi holatiga nisbatan 1990-yilda dengiz suvi hajmi 54 foiz qisqardi. Suv qirg‘oqdan 70-100 kilometrga chekingan joylarda bo‘ron natijasida yiliga 50-70 ming tonnagacha tuz atmosferaga ko‘tarilgani kuzatilgan.

Orol bo‘yida ekologik ahvolning og‘irlashuvi, jumladan, ichimlik suv bilan ta’minlanishning yomonlashuvi, suvdagi minerallashuv oshishi natijasida qishloq aholisining 87 foizi har xil kasalliklarga chalingani aniqlangan. Masalan, Qoraqalpog‘istonda ichterlama yuqumli kasalligi bilan kasallanganlar sobiq ittifoq darajasidan 23 barobar ko‘p bo‘lgan. Oqibatda 1960-1990-yillar davomida go‘daklar va onalar o‘limi ko‘paygan, mexanizatorning o‘rtacha umr ko‘rishi 41 yoshni tashkil etgan.

O‘sha paytda o‘zbek yigitlarining bo‘yi Yevropa yigitlarining bo‘yidan 7-8 santimetr pasayib, ko‘krak qafasi ham shuncha qisqargan. “Ekosan” xalqaro jamg‘armasi mutaxassislari ma’lumotiga ko‘ra, mustaqillikka qadar O‘zbekistonda yiliga 35 ming chaqaloq boshining o‘lchami normadan kichik bo‘lib tug‘ilgan. Achinarlisi, bu holat haqida aytilmasdi ham, yozilmasdi ham.

Bolalar o‘limining ortishi mamlakatimiz aholisi uchun juda katta fojia edi. Bir yoshga ham yetmay vafot etgan go‘daklar soni tug‘ilgan har 1000 bolaga nisbatan Qoraqalpog‘istonda 68,8 nafarni, Surxondaryo viloyatida 57,7 nafarni, Farg‘ona viloyatida 56,6 nafarni tashkil etgan. Bahoriston, Uchquduq, Nukus va Bo‘zatov kabi tumanlarda 80 nafardan 118 nafargacha bo‘lgan.

Sobiq ittifoq bo‘yicha bu ko‘rsatkich tug‘ilgan har 1000 bola hisobiga 26 nafarni, Germaniya, Kanada, Finlyandiya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda 5,5 nafarni tashkil etganini hisobga olsak, yuqoridagi raqamlar fojiaviy tusda bo‘lgani yanada yaqqol ko‘rinadi.

### Kuchli siyosiy iroda ifodasi

Xalqimiz bugun g‘oyibdan kelmagan davlat mustaqilligining 33-yilligini nishonlash arafasida turibdi. Ushbu kunlarda 1980-yillarning etni junjiktiradigan ruhiy-ma’naviy ozurdaliklarini, yuraklarni zardobga to‘ldirgan paytlarning achchiq iztiroblarini, o‘sha ayozli kunlarini eslamaslik mumkin emas. Shuningdek, o‘tgan asrning 80-yillari voqealarining tahlili har birimizning sha’nimiz, oriyatimiz, nafsoniyatimiz va qadr-qimmatimiz bilan bog‘liq bo‘lgan tilimizni, muqaddas dinimizni, e’tiqodimizni, eng oliy insoniy qadriyatlarimizni tiklagan aziz, buyuk ne’mat, xalqimizga tengi yo‘q, eng ulug‘ huquqni bergan MUSTAQILLIKka osongina erishmaganimizni ko‘rsatadi.

Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharririning savollariga javobida: “Holbuki, sobiq mustabid tuzum davrida “tepa”dan buyruq bo‘lmasa, bir qadam bosishga ham haqqimiz yo‘q edi. Ahvol shu darajaga yetib borgan ediki, uyimizning tomigacha paxta ekdik, lekin kosamiz oqarmadi. Maktab bolalarini ham paxtaga haydadik. Sevimli shoirimiz Abdulla Oripov o‘z davrida chuqur dard va iztirob bilan “Million egatlarga sochilgan o‘zbek”, deb yozganidek, yuz yil egilib paxta terdik.

Yaqin-yaqingacha har yili taxminan 6-7 million odam paxta terimiga majburan safarbar etilardi. Mana, uch yildan buyon ular bu mashaqqatdan qutuldi. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu sohada biz bozor iqtisodiyotining sinalgan va samarali usullarini, jumladan, klaster tizimini joriy etdik”, degan edi.

Davlatimiz rahbarining ma’naviy jasorati bois, 2019-yildan buyon xalqimiz oq paxtaning qora mehnati va mashaqqatidan qutuldi.

Tarixiy va xalqchil model — Harakatlar strategiyasi formatida yangi O‘zbekiston shakllandi. 2023-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi 6 foiz o‘sib, 91 milliard dollarga yetdi. Bu raqam aholi jon boshiga hisoblaganda 2,5 ming dollardan to‘g‘ri keladi.

Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o‘ziga xos tizimi yaratildi. Bularni ko‘rmaslik, anglamaslik, sezmaslik mumkin emas. Keyingi paytda “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Mehr daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Shu asosda muammoga oid mavhum ko‘rsatkichlar emas, balki yordam va ko‘makka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari o‘z joyida aniq o‘rganilmoqda, vaqtida va samarali hal etilmoqda.

Keksalar, nogironlar, og‘ir ahvolga tushib qolganlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko‘rsatish kabi ezgu an’analar bugun yangicha ma’no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Besh muhim tashabbus”, “Har bir oila — tadbirkor”, “Yoshlar — kelajagimiz” kabi dasturlar ijobiy natijasini bermoqda.

O‘zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvida qonuniylik, ochiqlik va adolatga asoslangan, odamlar manfaatiga xizmat qiladigan xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllantirildi.

Bugungi davr mustaqilligimizning qadriga yetib, unga ijtimoiy-iqtisodiy mazmun berishni talab qilmoqda. Vatanim, xalqimga nafim tegsin deb yashash va ishlash vaqti keldi. Buning uchun Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, jonajon vatanimizga bo‘lgan cheksiz mehrimiz va sadoqatimizni muqaddas bayroq qilib, bor bilim va tajribamiz, aql-zakovatimizni ishga solib, yagona xalq, yagona millat bo‘lib birlashsak, ko‘zlagan ezgu maqsadlarimizga albatta yetamiz.

**Yangiliklar bor. Ya'ni har bir hududda bittadan innovatsion madaniyat markazlarini tashkil qilish niyatidamiz. Buning uchun Innovatsion rivojlanish agentligi bilan hamkorlikda loyihalar ishlab chiqiladi. Rejaga ko'ra, zamonaviy bukkafelar, "aqlli" kutubxonalar, robot gidlar xizmatidan foydalanib, aholi interaktiv musiqiy ta'limga olib kiriladi.**



# MADANIYAT MARKAZLARI

## FAQAT TADBIR O'TKAZADIGAN TASHKILOT EMAS

### Ularning o'z vazifasini bajarishiga imkon beraylik

Suhbatdosh











**Bolaligimizda qishloq guzarida madaniyat uyi bo'lardi. U yerda katta ekranda kinolar namoyish etilar, konsert, tadbirlar o'tkazilardi. Keyin ular e'tibordan chetda qoldi. Ana shu muddat madaniyat sohasida yo'qotishlarga sabab bo'ldi. Keyingi yillarda mamlakatimizda mazkur yo'nalishga ham yangi hayot baxsh etildi. Hatto "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Unda olis qishloq va ovullarda barcha imkoniyatga ega madaniyat maskanlari faoliyatini yo'lga qo'yish maqsad qilingan. Qonunchilikka ko'ra, tuman va shaharlarda bittadan asosiy madaniyat markazi bo'lishi kerak. Boz ustiga 7 mingdan ziyod aholisi bor qishloqlarda ham madaniyat markazlari tashkil etiladi. Amalda bu qay darajada o'z ifodasini topyapti? "O'zbekiston — 2030" strategiyasida madaniyat markazlarini ta'mirlash, faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar ko'rsatilgan. Xo'sh, ularning ijrosi nechog'liq amalga oshirilyapti? Biz shu mavzudagi savollarga javob olish uchun Madaniyat vazirligining Madaniy faoliyat, nomoddiy madaniy meros va xalq ijodiyotini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i Jamshidbek Niyazbekovga yuzlandik.**

### Eng og'riqli nuqtamiz — ta'mirtalablik

— Madaniyat markazlari uzoq yillar e'tibordan chetda qolgani rost. Ma'lum muddat sohada jiddiy o'zgarishlar kuzatilmadi. 2017-yildan bu masalaga alohida e'tibor berila boshladi. Madaniyat va san'at sohasini tubdan isloh qilish bo'yicha qator normativ hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2018-yilgi Milliy madaniyatimizni rivojlantirish konsepsiyasiga madaniyat markazlarini kapital rekonstruksiya qilish, yangi binolarni qurish masalalari kiritildi. Bu bilan madaniyat markazlarining asosi, ya'ni hujjatlari — funksiyalari, pasporti, nizomi ko'rilib, ishlab chiqildi. Konsepsiyadan tashqari "Obod qishloq", "Obod mahalla" dasturlari doirasida ta'mirga muhtoj bo'lgan madaniyat markazlarining 30 foizi ta'mirlandi. O'sha vaqtda markazlarning jami 80 foizi ta'mirtalab edi. Hozir respublikamizda 837 ta madaniyat markazi bor. Ularning yarmi ta'mirga muhtoj. Shuningdek, ularni zamonga mos ravishda jihozlash, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, musiqa cholg'ularini yetkazib berishdek masalalar ham bor.

Sohadagi ishlar bir oz kechikdi. Bunga pandemiya sabab bo'ldi. Ya'ni 2022-yilgacha madaniyat markazlarini ta'mirlash ishlari olib borilmadi. Prezidentimizning 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan avval rekonstruksiya qilingan madaniyat markazlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. O'tgan yili abgor holdagi binolarga odamlarning kirgisi kelmaydi, ularni ta'mirlash kerak, degan mazmundagi tashabbus ilgari surildi. Natijada ta'mirlashdan tashqari madaniyat markazlarining barchasi 7 turdagi milliy musiqa asboblari, to'liq uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlanadigan bo'ldi. Shuningdek, ularning og'irini yengil qilish uchun davlat budjetidan 208 ta tuman va shahar madaniyat markazlariga bittadan "Damas" avtomobili ajratildi. Bu bilan markazlarni shu paytgacha qiynab kelgan transport muammosi yechilib, ayniqsa, mahallalarga kirib borishda qulaylik bo'ldi. 13 tagina shtat birligi bo'lgan madaniyat markazlari tumandagi barcha tadbirlarni o'tkazadi, beminnat xizmat qiladi. Birgina to'garak rahbari boshlovchilik, xonandalik, sozandalikni uddalaydi. Agar tumanlarda bir oyda o'rtacha 15 dan 20 tagacha tadbir o'tkazilishini hisobga olsak, bu haqiqiy fidoyilik. Endi boshlangan ishlarni jadal davom ettirib, ularga barcha shart-sharoitni yaratib berish kerak.

### Boqiy merosimizni saqlayotganlar

Tizimda jami 7 mingdan ortiq xodim ishlaydi. Ular orasida nomoddiy madaniy merosni asrab, uni targ'ib etib kelayotganlar bor. Shu jihatdan ham madaniyat markazlari xalq og'zaki ijodiyotimizni asrashda muhim o'ringa ega. Zero, folklor-etnografik, ashula va raqs, namunali bolalar jamoalari o'lan, lapar, marosim qo'shiqlarimizni keng targ'ib qilib kelyapti. Ayni paytda 597 ta "Xalq havaskorlik jamoasi" maqomiga ega jamoalar bor.

Quvonarlisi, bu jamoalar xorijga ham chiqa boshladi. Jumladan, Qatardagi O'zbekiston madaniyati kunlariga Surxondaryo, Xorazm folklor jamoasi yuborilgan bo'lsa, Buxoro viloyati folklor-etnografik jamoasi Belarusdagi xalqaro tadbirda ishtirok etib keldi. Oldinda yana ko'plab chet davlatlardagi tadbirlar turibdi. Ijro repertuari, shuningdek, xorijiy davlatda tashkil etilayotgan tadbir mazmuniga qarab jamoalar yuboriladi. Masalan, Italiyada o'tadigan xalqaro folklor festivalidan taklif keldi. Tadbirda, asosan, tog'li hududlarda istiqomat qiluvchi aholining milliy urf-odatlari namoyish qilinar ekan. Shunga mos ravishda Forishdagi "Bog'don" folklor-etnografik jamoasi boradigan bo'ldi. Milliyligimizni targ'ib qilishda imkon qadar to'g'ri yo'l tutishga harakat qilamiz. Bu borada folklor-etnografik jamoalarini qo'llab-quvvatlash muhim omil bo'lyapti. Shuning uchun davlatimiz rahbarining 2023-yil 25-dekabrda imzolangan "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida folklor jamoalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Ularga ham ehtiyojidan kelib chiqib, musiqa




asboblari beriladigan bo'ldi. Masalan, Xorazm jamoalari akkordeonsiz chiqish qila olmaydi. Akkordeon esa o'zimizda ishlab chiqarilmaydi, chetga buyurtma berdik. Barcha jamoalarga zamonaviy ovoz kuchaytirgich apparaturalari uchun ham mablag' ajratildi. Musiqa asboblarini bu yil 140 ta jamoaga, kelgusi 3 yilda esa barchaga to'liq yetkazib beramiz.

### Milliy kontent masalasida barchamiz birlashaylik

— Nomoddiy madaniy merosimizni targ'ib qilish, saqlash, uni ommalashtirish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilgan. U davlatimiz rahbarining o'tgan yili imzolangan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgan. Ya'ni hujjatda hududlar kesimida nomoddiy merosni o'rganish, muhofaza qilish choralari aks etgan. Ularni kelajak avlodga zamonaviy formatda yetkazib berish masalasida esa yangi tashkilotga ehtiyoj tug'ildi. Natijada alohida bir institut — Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilindi. Unda etnofolklorni tadqiq qiladigan laboratoriyalar mavjud bo'lib, yo'qolib ketayotgan meroslarimizni asrab qolish vazifasini bajaradi. Muhimi shundaki, mazkur institut ham bevosita madaniyat markazlariga murojaat qiladi. Bugun zamon talabiga labbay deb javob beradigan, turli yot unsurlarga qarshi kuchli immunitetga ega milliy jamoalar kerak. Shu bois, mazkur sohadagi barcha mas'ul tashkilot va idoralar hamqadam, fikrdosh bo'lamiz. Milliy kontent masalasida barchamiz birlashamiz.




### Xususiy sektor investitsiyaga keng yo'l ochadi

***— Ayrim hududlarda madaniyat markazlarini tadbirkorlar sotib olgan. Tabiiyki, ulardan butunlay boshqa maqsadlarda foydalanilmoqda. Bu borada qanday choralar ko'rilyapti?***

— To'g'ri, bunday holatlar mavjud. Masalan, Jalaquduq tumanidagi ta'mirtalab madaniyat markazini hokimlik xususiy bog'cha uchun berib yuborgan. E'tiroz bildirilgach, hokimlik qarori bekor qilindi. Bog'cha uchun boshqa bino ajratildi. Shu ma'noda, davlat-xususiy sherikligi (DXSH) asosida madaniyat markazlari tadbirkorlarga muayyan shartlar asosida berilmoqda. Ya'ni ular markazni ta'mirlaydi. Evaziga o'sha hududda ishlab chiqarish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatadigan do'konlar qurishga ruxsat beriladi. Unga ko'ra, tadbirkor madaniyat markazi binosini bizning talabimizga asosan ta'mirlaydi. Moddiy-texnik bazasini to'liq ta'minlaydi. Evaziga kamida 20, uzog'i 49 yilgacha binodan tekin foydalanadi. Ayni paytda 26 ta madaniyat markazini DXSH asosida tadbirkorlarga berdik. Bu samara bera boshladi. Masalan, Bo'stonliqdagi madaniyat markazi butunlay yangi ko'rinishga keldi. Tadbirkor markaz yoniga xususiy maktab qurgan. Bolalar maktabdan chiqib, madaniyat markaziga kiradi. Buning nimasi yomon? Aholi ko'pincha shuni yaxshi tushunib yetmayotgani o'ylantiradi. Vaholanki, biz tashabbuskor tadbirkorlar bilan gaplashyapmiz. Tajriba tariqasida madaniyat markazlarini xususiy sektorga bermoqchimiz. O'zimiz g'oyani berib turganimiz holda, ular boshqaruvni ham o'zlari amalga oshirsa, investitsiya kelishi boshqacha bo'ladi. Qolaversa, bu orqali ham hududga, ham tadbirkorga yaxshi bo'ladi, qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Zero, xususiy sektorda ko'proq shtat birligi tashkil qilish imkoni bor. Bozor qoidalari ishlay boshlagach, o'z-o'zidan tadbirlar, konsert miqdori va sifatiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Buning mohiyatini tushungan tadbirkorlar hamkorlikda ishlashga rozi bo'lyapti. Ayni paytda hamkorlik mexanizmini ishlayapmiz. Nasib qilsa, buni ham qonun hujjatlariga mos keladigan holda rahbariyatga taqdim qilamiz. To'g'ri, davlat tomonidan ta'mirlanib, yangi qiyofa kasb etayotgan madaniyat markazlarida ham butunlay yangicha muhit paydo bo'ldi. Kasbi, Jarqo'rg'on, Buloqboshi, Chust, Olot kabi eng chekka tumanlarda chiroyli madaniyat markazlari barpo bo'lgani buning amaldagi ifodasi. Ma'joziy aytganda, bunday



Madaniyat markazlarining yuragi urishni boshladi.

***— Innovatsion madaniyat markazlari ham bo'ladimi, ular bilan nimalarga erishamiz?***

— O'tgan yili Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida viloyat hokimlariga orttirgan mablag'i hisobidan bittadan namunaviy madaniyat markazi qurish topshirig'i berildi. Namunaviyligi shundaki, markazning kutubxonasi, kinozali, to'garak xonalari bo'lishi kerak. Bu bo'yicha hokimlar vazirlik bilan birgalikda manzilli ro'yxatlarini tasdiqladi. Biroq qaysidir hududda ishlar jadal ketyapti, qayerdadir boshlangani yo'q. Qanday bo'lmasin, bu topshiriq bajarilishi kerak, albatta. Shunga qaramay, biz yana madaniyat markazlarini zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqsak, faoliyatini o'zgartirish, ya'ni qiziqarliroq qilish uchun o'zimiz ham harakat qilsak, degan tashabbus bilan chiqdik. Taklif loyihasi tayyorlanyapti. Normativ-huquqiy hujjat asosida ishlayapmiz. Yangiliklar bor. Ya'ni har bir hududda bittadan innovatsion madaniyat markazlarini tashkil qilish niyatidamiz. Buning uchun Innovatsion rivojlanish agentligi bilan hamkorlikda loyihalar ishlab chiqiladi. Rejaga ko'ra, zamonaviy bukkafelar, "aqlli" kutubxonalar, robot gidlar xizmatidan foydalanib, aholi interaktiv musiqiy ta'limga olib kiriladi. Zamonaviy kinozallar, ayollar uchun dam olish zonalari bo'ladi.

Shuningdek, madaniyat markazlarida hunarmandlarga joy ajratib, "Usta-shogird" yo'nalishi asosida yo'qolib ketayotgan hunar turlarini o'rgatishni yo'lga qo'ymoqchimiz. Masalan, egar-jabduq yasash, gilam to'qish, quroq tikish kabi kamyob hunarlar yosh avlodga o'rgatilsa, ularni asrab qolishga hissa qo'shamiz. O'z navbatida, hunarmandlar faoliyatiga ma'lum mezonlar qo'yiladi. Masalan, 10 nafar bolani hunarga o'rgatib bersa, markazdan maosh oladi. Albatta, bularning bari ma'qullanganidan keyingina hukumatga taqdim qilamiz.

### Bepul platforma yaratilyapti

***— Insonlar hayotini internetsiz tasavvur qilib bo'lmasligini hisobga olib, virtual madaniyat markazining loyihasi ishlab chiqildi. Hozircha pilot shaklida ishlayapti. Xo'sh, buning qanday afzalliklari bor?***

— Yoshlar o'zi qiziqqan san'at turi bo'yicha onlayn to'garakda saboq olishi mumkin. Bolalar musiqa va san'at maktablari, san'at kollejlaridan professional ustozlar yordamida videodarslar tayyorlanyapti. Hozirgacha milliy musiqa cholg'ulari bo'yicha onlayn darslar qilindi. Shu bilan birga, nomoddiy madaniy meros bo'yicha ham yaxshi ma'lumotlar berildi. Platforma tayyor bo'lmagani sabab ular hozircha YouTube tarmog'iga joylangan. Endilikda bu ishlar platformadan joy oladi.

Shuningdek, barcha muzeylarga virtual sayohat qilish, milliy musiqalar tinglash mumkin. Barcha kontentlar to'ldirilib bo'lgach, aholiga bepul foydalanish uchun beriladi. Tegishli tashkilotlarga taqdim qilinadi.

### Qonunlar hayotga to'g'ri tatbiq qilinsa...

***Suhbat so'ngida madaniyat markazlari faoliyati samaradorligi qaysi mezonlarga ko'ra aniqlanayotgani bilan qiziqdik.***

— Qonun hujjatlariga ko'ra, madaniyat markazi faoliyatini baholashda uning moddiy-texnik bazasini saqlashdan toki nechta tadbir o'tkazilganigacha hisobga olinadi. Albatta, ta'mirtalab madaniyat markazlari bundan mustasno. Axir sovuq kunlarda kirib bo'lmaydigan markazlar 3-4 oy qanday qilib tadbir o'tkazadi? Hatto mahalla idoralari, maktab binolarida joylashgan madaniyat markazlari bor. Ularning 160 tasida umuman bino yo'q. "Yil madaniyat markazi" degan tanlovimizda mana shu holatlar inobatga olinadi. Biroq xursand bo'ladigan jihatimiz — madaniyat markazlari yuqorida aytganimizdek, nomoddiy madaniy merosni saqlaydi. Shu bois, madaniyat markazlari faqat konsert beruvchi tashkilot bo'lib qolmasligi kerak. Axir ularning faoliyati juda keng, serqirra. Ularda havaskorlik teatrlari ham bo'lishi kerak. Bugun atigi 26 ta havaskorlik teatrlari bor. Lekin ular qo'yayotgan spektakllarni respublika bo'yicha aylantira olmaymiz, chunki saviyasi sayoz. Poytaxtdagi teatrlarga kelib, professional aktyorlar bilan ishlashga vaqti yo'q. Chunki tuman tadbirlaridan ortmayapti. Vaholanki, qonunga ko'ra, madaniyat va san'at xodimlarini jamoatchilik asosida tadbirlarga jalb qilish taqiqlanadi. Ular o'z vazifasidan bo'sh vaqtdagina xizmat ko'rsatishi mumkin. Lekin ko'p joylarda bu norma ishlamayapti. O'rganishlar shu boradagi huquqiy targ'ibotni ham kuchaytirish kerakligini ko'rsatmoqda. Chunki hokim o'rinbosarlariga bu haqda aytsak, "Shundaymi?" dedi hayratlanib. Ushbu norma ishlasa, mahalliy hokimliklar madaniyat va san'at xodimlarini rag'batlantirib turish kerak ekanini anglab yetadi.

Umuman, hozir oldimizda juda muhim va keng qamrovli vazifalar turibdi. Ularni kechiktirmasdan, bekamu ko'st bajarish kerak. Axir buning uchun imkoniyat ham, huquqiy asos ham yetarli. Bunda esa har bir shaxsning ishtiroki muhim. Zero, gap o'zligimiz, milliy madaniyat va san'atimiz haqida ketmoqda.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri Munojat MO'MINOVA suhbatlashdi.**

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 2574.
41126 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O'zA yakuni — 22:15 Topshirildi — 22:55